

Nuh ibn Mansur



Nuh ibn Mansur

Amiri Rashid

(963 – Buxoro – 997)

(976-997)

Somoniylar davlatining amiri, amir **Mansur ibn Nuhning** o'g'li. Otasining vafotidan so'ng taxtga o'tirdi (976 yil 26-sentabr). Siyosiy va harbiy sohada islohotlar o'tkazgan. **Muhammad ibn Abdulloh ibn Aziz** vazir, **Abulhasan Simjuriy** sipohsolor (bosh qo'mondon) bo'ldi. Siyosiy jarayonlarda turk lashkarboshilarining mavqei kuchaygan. Nuh ibn Mansurning lashkarboshisi **Foyiq** Raboti Malik yaqinida bo'lgan jangda ataylab yengilgan va qoraxoniylar hukmdori **Bug'roxon** (Horun ibn Muso) Buxoroni urushsiz ishg'ol qilgan (992). Biroq, **Bug'roxon** kasallik tufayli Qashqarga qaytib ketayotganda yo'lda vafot etgan (992). Nuh ibn Mansur Amul (Chorjo'y)dan qaytib, Buxoroni qayta egallagan. Bu paytda Somoniylar davlatiga qarashli Xuroson **Abu Ali Simjuriy** (Abulhasan Simjuriyning o'g'li) va **Foyiq**, G'azna va Hirot viloyatlari **Sabuktegin** qo'lida bo'lgan. Nuh ibn Mansur bilan **Sabuktegin** o'rtasida Kesh va Naxshabda o'zaro uchrashuv bo'lib, unda **Sabuktegin** somoniylarni qo'llab-quvvatlashga va'da bergan. **Gardiziyning** yozishicha, Sabukteginning 20 ming kishilik qo'shini **Abu Ali Simjuriy** (997 yil vafot etgan) va **Foyiq** askarlariga O'trot atrofida kuchli zarbalar bergan. Nuh ibn Mansur Buxoroga qaytgan. Biroq uning Somoniylar davlatini tanazzuldan saqlab qolish yo'lidagi harakatlari o'z natijasini bermadi. Qoraxoniylarning Buxoroga 996 yil qilgan hujumlari oqibatida **Sabuktegin** bilan **Bug'roxonning** vorisi **Nasr Iloqxon** o'rtasida Nuh ibn Mansurning ishtirokisiz muzokaralar o'tkazilib, somoniylarga Movarounnahrning faqat markazi qoldiriladi. Nuh ibn Mansur saroyida shoir **Daqiqiy** ijod qilgan. Mashhur tabib **Abu Ali ibn Sino** 16 yoshida Nuh ibn Mansurni davolab, o'sha davrda Sharqdagi eng boy kutubxona sanalgan Somoniylar davlatining kutubxonasida mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo'lgan.